

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek o'gli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Sagatova Ziёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Sultonova Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDAGI MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artiqova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITTOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNIIY MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qızı</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Toʻshtemirova Farangiz Shuxratovna</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Burhanova Shuyrin Jamshetovna</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Xidoyatov Bahtiyer Batiyrovich, Paraxatova Shahnoza Ernazarovna</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON NAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI.....	251-256
<i>Abdужанпоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR.....	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVONING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning XORIJIIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'YI INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTN TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI.....	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

LEGAL POLICY IN ENSURING GENDER EQUALITY: ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Akayeva Marapat Abduhalikovna

Candidate of Legal Sciences, Associate Professor

Namangan State University

E-mail: m.akaeva@mail.ru

Abstract. This article analyzes the legal policy aimed at ensuring gender equality in Uzbekistan and examines the stages of its formation and development. The study explores national legislation, constitutional provisions, and state programs related to gender equality. Special attention is given to the challenges in implementing legal policy and identifying priority areas for its improvement. Based on a comparative analysis with international legal standards, the article presents scholarly conclusions and practical recommendations.

Keywords: gender equality, legal policy, national legislation, constitutional framework, Uzbekistan's experience.

GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI

Akayeva Marapat Abduhalikovna

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosat va uning shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender tengligini ta'minlashga doir milliy qonunchilik, konstitutsiyaviy normalar va davlat dasturlari huquqiy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Maqola O'zbekiston tajribasini xalqaro huquqiy standartlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, huquqiy siyosat, milliy qonunchilik, konstitutsiyaviy asoslar, O'zbekiston tajribasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N35>

Kirish. Bugungi kunda gender tengligini ta'minlash masalasi jamiyatni demokratik rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosat izchil takomillashtirilib, ushbu sohada muhim normativ-huquqiy hujjatlar, institutsional mexanizmlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Gender tengligini mustahkamlash konstitutsiyaviy tamoyillar asosida amalga oshirilmogda hamda xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirilmogda. Biroq huquqiy normalarning mavjudligi ularning amaliy ijrosini

to'liq kafolatlamasligi, huquqni qo'llash amaliyotida ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatning mazmuni, uni amalga oshirish mexanizmlari va samaradorligini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada O'zbekiston tajribasi misolida gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish istiqbollari yoritiladi.

Xususan, "keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi"[1]. Ushbu yondashuv jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash hamda ularning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosatni o'rganishda kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot huquq nazariyasi hamda davlat-huquqiy ta'limotlarning asosiy tamoyillariga tayangan holda olib borildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik hamda tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-huquqiy metod orqali O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy qonunchilik normalari xalqaro huquqiy standartlar bilan solishtirildi.

Formal-yuridik metod huquq normalarining mazmuni, tuzilishi va huquqiy mohiyatini aniqlashda qo'llanildi. Tizimli tahlil esa gender tengligini ta'minlashga doir huquqiy siyosatning institutsional mexanizmlari va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar chiqarilib, huquqiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Gender tengligi masalasi yuzasidan ayrim olimlar ushbu jarayonning ijtimoiy-madaniy oqibatlariga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning ta'kidlashicha, jamiyatda gender tengligini ta'minlash jarayoni milliy va diniy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayol va erkak fe'l-atvorida muayyan salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur jarayon ijtimoiy identifikatsiyaga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Xususan, ayrim tadqiqotchilar "milliy-diniy qadriyatlarni saqlab qolish, ayol va erkakning fe'l-atvorida jiddiy salbiy o'zgarishlarga olib kelishi bilan ijtimoiy identifikatsiyaga jiddiy ehtiyoj tug'diradi, degan fikrni tasdiqlagan"[2].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning normativ-huquqiy asoslari hamda ularning amaliy ijrosi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilikda gender tengligini ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy tamoyillar, maxsus qonunlar va davlat dasturlari tizimli ravishda shakllantirilgan bo'lib, ular xalqaro huquqiy standartlar bilan umumiy jihatdan uyg'unlashgan.

Shu bilan birga, huquqiy siyosatning amaliyotda qo'llanilishi bir xil darajada samarali emasligi aniqlandi. Xususan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki so'nggi yillarda oshib borayotgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar

jamiyatdagi real demografik va ijtimoiy salohiyatni to'liq aks ettirmaydi. Ayrim sohalarda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy kafolatlar institutsional va tashkiliy to'siqlar sababli yetarli darajada ishlamayotgani kuzatildi.

Tahlil davomida gender tengligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida ijtimoiy stereotiplar, huquqiy ong va madaniyat darajasining yetarli emasligi hamda huquqni qo'llash amaliyotida samarali monitoring mexanizmlarining cheklanganligi aniqlanib, ular huquqiy siyosat samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish bilan bir qatorda, uning ijrosini ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish zarur. Ushbu yondashuv gender tengligini ta'minlashning barqaror va samarali huquqiy modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Gender tengligini ta'minlash va ushbu jarayonda huquqiy siyosatning o'rni masalalari xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro miqyosda gender tengligi, avvalo, inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilinib, uning huquqiy asoslari Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan fundamental hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, *Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya* (CEDAW) gender tengligini ta'minlashning universal huquqiy mexanizmlarini belgilab bergan [3].

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatning samaradorligi, normativ-huquqiy kafolatlar va ularning amaliy ijrosi o'rtasidagi tafovut masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi tadqiqotlarida huquqiy normalar samaradorligi institutsional mexanizmlar va monitoring tizimlari bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi [4], [5].

O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash masalalari milliy qonunchilik darajasida mustahkam huquqiy asosga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi asosiy konstitutsiyaviy tamoyil sifatida belgilangan bo'lib, mazkur norma gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatning poydevorini tashkil etadi [6]. Mazkur tamoyilni rivojlantirish maqsadida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unda gender tengligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari va huquqiy mexanizmlari belgilab berilgan [7].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida gender siyosatini amalga oshirishga qaratilgan Prezident farmonlari va davlat dasturlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatning izchil va tizimli ravishda olib borilayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning samaradorligi, uni amalga oshirish mexanizmlari va huquqni qo'llash amaliyoti yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur holat O'zbekiston tajribasini ilmiy-huquqiy jihatdan chuqur va tizimli tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish bo'yicha sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyaga muvofiq,

shuningdek, BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan Global kun tartibi – Barqaror rivojlanish maqsadlarini (keyingi o'rinlarda BRM) izchil amalga oshirish doirasida O'zbekistonda tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Xususan, 2018-yil 20-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan barqaror rivojlanish sohasidagi 16 ta milliy maqsad va ular bilan bog'liq 127 ta vazifa tasdiqlandi.

Mazkur maqsadlar orasida beshinchi maqsad – gender tenglikka erishish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsad doirasida 2030-yilga borib barcha ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida xotin-qizlarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ularga yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlar yaratish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, davlat boshqaruvining barcha darajalarida qabul qilinadigan dasturlarga gender tengligi tamoyillarini to'liq integratsiya qilish belgilangan.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun to'qqizta vazifa ishlab chiqilgan bo'lib, ular qatoriga ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga, jumladan bilvosita kamsitishlarga barham berish tamoyillarini qonunchilikka joriy etish va huquqni qo'llash amaliyotiga samarali tatbiq etish; xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini, jumladan odam savdosi, jinsiy va boshqa ekspluatatsiya turlarini bartaraf etish; erta va majburiy nikohlarga yo'l qo'ymaslik; haq to'lanmaydigan parvarish va uy xo'jaligi mehnatini tan olish va qadrlash; xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida to'liq ishtirokini ta'minlash; reproduktiv salomatlik sohasida keng qamrovli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish orqali ayollarning imkoniyatlarini oshirish hamda davlat dasturlarini ishlab chiqish jarayonlariga gender tenglik tamoyillarini to'liq joriy etish kabi vazifalar kiradi.

2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ushbu hujjat asosida xotin-qizlarning ta'lim darajasi va iqtisodiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati izchil takomillashtirildi. Prezidentning 15 dan ortiq farmon va qarorlari, hukumat hujjatlari hamda vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan 20 dan ortiq chora-tadbirlar rejalari aynan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirildi. 2022-yil yanvar oyida esa “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, 2019-yil sentabr oyida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”, “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida”gi qonunlarning qabul qilinishi gender tenglikni ta'minlashning mustahkam huquqiy asosini yaratdi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng nikoh yoshi belgilandi, ayollarning mehnat faoliyatiga oid ilgari mavjud bo'lgan cheklovlar va gender-asimmetrik normalar bekor qilindi.

Aholining gender siyosatiga oid xabardorligini oshirish maqsadida keng qamrovli tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ta'limning barcha bosqichlarida gender qonunchiligi va xalqaro standartlar o'rgatilmoqda, an'anaviy stereotiplarni bartaraf etishga qaratilgan trening va seminarlar uchun maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek,

normativ-huquqiy hujjatlarning gender tenglik tamoyillariga muvofiqligini baholashga qaratilgan majburiy gender-huquqiy ekspertiza joriy etildi.

Prezident farmonlari va Hukumat hujjatlariga muvofiq, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish, eskirgan qarash va urf-odatlariga qarshi kurashish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2020-yilda Malla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilib, keyinchalik u Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasiga aylantirildi. Hududlarda hokimlarning xotin-qizlar va oila masalalari bo‘yicha maslahatchilari faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 9 255 ta mahallada ushbu yo‘nalish bo‘yicha mas‘ul lavozimlar joriy etildi.

2021-yil may oyida 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. Strategiya doirasida saylov huquqlari, davlat xizmati, ta‘lim, fan, sport, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, oilaviy munosabatlar va bolalar tarbiyasida tenglik tamoyillari mustahkamlandi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy etilib, COVID-19 davrida ham og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarga manzilli yordam ko‘rsatildi. Jumladan, 2018–2021-yillarda 4 878 nafar ayolga uy-joy sotib olish uchun 112 milliard so‘mdan ortiq dastlabki to‘lovlar to‘lab berildi, 1 383 nafar nogironligi bo‘lgan ayol reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlandi, 150 nafar ayolga murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi. So‘nggi 4 yilda 620,2 ming nafardan ortiq xotin-qiz ish bilan ta‘minlandi, 106 ming nafari tadbirkorlik faoliyatiga jalb etildi. 2021-yilda 6,5 ming nafar ayolga 122 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan islohotlar izchil va tizimli xarakter kasb etib, xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini yuksaltirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni asosida xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan kompleks institutsional tizim shakllantirildi. Ushbu tizim doirasida mas‘ul vakolatli organlar aniq belgilab berilib, ularning o‘zaro hamkorligi mustahkamlandi.

Ichki ishlar organlari mazkur tizimda markaziy bo‘g‘in hisoblanadi. Ularning faoliyati tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, zo‘ravonlik sodir etgan yoki bunga moyil shaxslar bilan muntazam profilaktik ishlar olib borishga qaratilgan.

2019-yilda Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tarkibida Xotin-qizlar muammolari bilan ishlash boshqarmasi tashkil etildi. Ushbu bo‘linma og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ixtisoslashgan.

2020-yilda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 206¹-modda kiritilib, himoya orderi talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilandi. 2021-yilda ushbu modda bo‘yicha jarimalarni bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha oshirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

2021-yil 19-maydagi Prezident qaroriga muvofiq Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha Respublika markazi hamda uning 28 ta hududiy bo‘linmasi tashkil etildi.

2-jadval.

Reabilitatsiya markazlarining asosiy vazifalari.

Yo'nalish	Mazmuni
Tibbiy yordam	Shoshilinch va reabilitatsion xizmatlar
Psixologik yordam	Stress, travma va suitsid profilaktikasi
Huquqiy yordam	Maslahat va himoya
Ijtimoiy yordam	Moslashuv va bandlik
Tadqiqot	Zo'rvonlik sabablarini tahlil qilish
Targ'ibot	Huquqiy madaniyatni oshirish

2021-yilda Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti tomonidan 14 ta tematik tadbir o'tkazildi. Shuningdek, 1146 qisqa raqamli Call-center tashkil etilib, 2021-yilda 11 337 ta murojaat qabul qilindi.

2022-yil yanvaridan "1259" ishonch telefoni ishga tushirilib, u orqali kecha-kunduz yuridik va psixologik yordam ko'rsatilmoqda.

Yaratilgan institutsional tizim, huquqiy mexanizmlar, reabilitatsiya infratuzilmasi va tezkor aloqa vositalari xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishning kompleks, barqaror va samarali modelini shakllantirdi. Mazkur yondashuv jamiyatda gender zo'rvonlikka nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish va xotin-qizlarning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

So'nggi bir necha yil davomida O'zbekistonda gender tengsizligiga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonning dastlabki asoslari 1990-yillarning boshlaridayoq shakllana boshlagan bo'lib, keyinchalik konstitutsiyaviy va qonunchilik normalari orqali mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida gender tenglikning asosiy tamoyillari belgilab qo'yilgan bo'lib, unda xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashgan holda erkaklar va xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlangan. Jumladan, Konstitutsiyaning 18-moddasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan bo'lsa, 46-moddada ayollar va erkaklarning teng huquqliligi alohida qayd etilgan.

Mazkur konstitutsiyaviy tamoyillar keyinchalik milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilindi. Xususan, 1995-yilda O'zbekiston BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasiga qo'shilib, jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ayollar va erkaklar huquqlarining tengligini ta'minlash bo'yicha xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi. Shuningdek, mamlakat ayollar huquqlarini himoya qilishga oid asosiy xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan bo'lib, so'nggi yillarda milliy qonunchilik xalqaro konvensiya va paktlarda belgilangan standartlar bilan uyg'unlashtirildi.

Davlat tomonidan gender tenglikni ta'minlash maqsadida institutsional mexanizmlar izchil ravishda shakllantirildi. Hukumat va mahalliy darajada muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar tashkil etilib, ular tarkibiga barcha darajadagi vakolatli subyektlar jalb qilindi. Shu bilan birga, xotin-qizlar huquqlari bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari mamlakat va mintaqaviy darajada maslahat va vakillik organlarida faol ishtirok etmoqda. Davlat ushbu jarayonga ilmiy doiralar va ekspertlarni ham keng jalb etgan holda, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan muammolarni hal etish bo'yicha strategiyalar va milliy harakat rejalarini ishlab chiqmoqda. Jumladan, 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi

ishlab chiqilib, u Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jinoiy va jinoyat-protsessual qonunchilikda xotin-qizlarni zo'rvonlikdan himoya qilish masalasida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Amaldagi qonunchilikda oila ichidagi zo'rvonlik alohida jinoyat tarkibi sifatida to'liq mustahkamlanmagan bo'lib, ko'plab holatlarda maishiy zo'rvonlik ishlari jabrlanuvchining shikoyati asosida, ya'ni xususiy ayblov tartibida ko'rib chiqiladi. Natijada, isbotlash yuki asosan jabrlanuvchi zimmasiga tushadi. Huquqiy bilimlarning yetishmasligi, zo'rvonlik holatlarini hujjatlashtirishdagi qiyinchiliklar va sud-tibbiy ekspertiza imkoniyatlarining cheklanganligi jabrlanuvchilarning huquqlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan yarashuv instituti ayrim hollarda zo'rvonlikdan jabrlangan ayollarning manfaatlariga zid natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim jinoyatlar bo'yicha jabrlanuvchi bilan yarashganlik asosida aybdor shaxsni javobgarlikdan ozod qilish amaliyoti himoya mexanizmlarining samarasini pasaytiradi. Shu sababli, mazkur normalarni xalqaro standartlar va CEDAW qo'mitasi tavsiyalariga muvofiq qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda qator muhim qonun hujjatlari qabul qilinib, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlash, odam savdosiga qarshi kurashish, oila va jamiyatda zo'rvonlikning oldini olish, shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha huquqiy asoslar mustahkamlandi. Ushbu hujjatlar gender tenglikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlar sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida gender tenglik Konstitutsiya, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan kafolatlangan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, qizlar yashash joyi va sog'lig'i holatidan qat'i nazar, umumta'lim maktablarida bepul o'rta ta'lim olish, shuningdek, 11 yillik ta'lim doirasida kasb-hunar ta'limi muassasalarida boshlang'ich kasb-hunar ta'limini egallash huquqiga ega.

Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar soni yil sayin ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning ulushi hali ham umumiy talaba va o'quvchilar sonining yarmidan kamini tashkil etmoqda. Bu holat ta'lim sohasida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha institutsional va tashkiliy choralar ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur muammoni yumshatish maqsadida 2020-yil 12-iyundagi "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq, oliy o'quv yurtlariga xotin-qizlarni qabul qilishda muhim imtiyozli mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo'lgan xotin-qizlar bakalavriyatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan qo'shimcha to'rt foizlik davlat granti asosida qabul qilinadigan bo'ldi. Bu o'z navbatida avvalgi yillarda ayrim toifalar uchun mavjud bo'lgan qo'shimcha ball berish amaliyoti bilan taqqoslaganda, ta'limga kirishda gender tengsizligini bartaraf etishga xizmat qildi.

Ta'lim mazmunida gender tenglik tamoyillarini mustahkamlash maqsadida Respublika ta'lim markazi huzurida maxsus ekspert ishchi guruhi tashkil etilib, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilayotgan darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va o'quv dasturlarini, jumladan, gender tenglik masalalari nuqtai nazaridan ekspertizadan o'tkazish

tizimi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani amalga oshirish doirasida "Yo'l xaritasi"da ta'lim tizimining barcha bosqichlarida inson huquqlari, xususan, xotin-qizlar huquqlariga oid mavzularni o'quv dasturlariga kiritish, "Xotin-qizlar huquqlari" fanlari va darsliklarini joriy etish nazarda tutilgan.

Gender tenglikka erishishda iqtisodiy tenglik hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu borada faqat qonunchilik darajasida teng huquq va imkoniyatlarni belgilash yetarli bo'lmay, ayollarning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar ko'pincha kam haq to'lanadigan, huquqiy jihatdan himoyasi zaif bo'lgan va norasmiy iqtisodiyotga mansub ish joylarida faoliyat yuritadi. Ta'limdagi tengsizlik esa ayollarning kasbiy malakasi va ko'nikmalari past bo'lishiga, natijada ularning daromadlari kamligi va iqtisodiy jihatdan boshqalarga qaram bo'lib qolishiga olib keladi. Bu holat, o'z navbatida, maishiy zo'ravonlik xavfini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

So'nggi o'n yilliklarda bandlik sohasida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan muayyan qonunchilik yutuqlariga erishilgan bo'lsa-da, xotin-qizlar ishga joylashish, ish haqi miqdori va rahbarlik lavozimlariga ko'tarilish imkoniyatlari borasida hanuz kamsitilish holatlariga duch kelmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, xotin-qizlar dunyo miqyosida bajarilayotgan ishlarning katta qismini amalga oshirsa-da, daromad va mulkka egalik ulushi sezilarli darajada pastligicha qolmoqda.

O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida so'nggi yillarda qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning mehnat huquqlarini mustahkamlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qonunchilikda ayollar va erkaklarning mulkka egalik qilishdagi teng huquqliligi kafolatlangan bo'lsa-da, amaliyotda mavjud urf-odatlar va stereotiplar bu kafolatlarning to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mehnat qonunchiligida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar, jumladan, ishga qabul qilish, teng ish uchun teng haq to'lash, xizmat pog'onalarida ko'tarilish, qayta tayyorlash va malaka oshirish, mehnat shartnomasini bekor qilish masalalarida tenglik belgilangan. Shuningdek, bolali ayollar va erkaklar uchun ijtimoiy himoya choralari, homiladorlik va tug'ish ta'tili kabi kafolatlar joriy etilgan. Biroq ushbu choralarning amaliyotdagi samaradorligini baholash uchun yetarli statistik va tahliliy ma'lumotlar mavjud emas.

Xulosa. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosat izchil shakllanib borayotganini va uning mustahkam normativ-huquqiy asosga ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, gender tengligi Konstitutsiyaviy tamoyil sifatida belgilangan bo'lib, ushbu yo'nalishda qabul qilingan maxsus qonunlar, Prezident farmonlari hamda davlat dasturlari huquqiy siyosatning tizimli xarakter kasb etishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari huquqiy normalarning mavjudligi gender tengligini to'liq ta'minlash uchun yetarli emasligini ko'rsatdi. Huquqni qo'llash amaliyotida ijtimoiy stereotiplar, institutsional to'siqlar va huquqiy madaniyat darajasining yetarli emasligi huquqiy siyosat samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat

gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni amaliy jihatdan kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish normativ-huquqiy bazani rivojlantirish bilan bir qatorda, huquqni qo'llash amaliyotini samarali tashkil etish, institutsional hamkorlikni mustahkamlash va jamiyatda gender tengligi madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Mazkur yo'nalishdagi kompleks va izchil chora-tadbirlar inson huquqlarini ta'minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.406. (456)
2. Burn S. M. *Women Across Cultures: A Global Perspective* (3rd ed.). – New York: Hill Education. 2011. –345 p.
3. United Nations. *Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW)*, 1979.
4. Inglehart, R., Norris, P. *Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World*. Cambridge University Press, 2003.
5. World Bank. *Women, Business and the Law*. 2020. UNDP. *Gender Equality Strategy 2022–2025*. 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
7. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining gender tengligini ta'minlashga oid farmon va qarorlari.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).